



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

602-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024 yil 25 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 666-son qarori ijrosi haqida”gi 511-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 666-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 25 oktabrdagi 511-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024 yil 25 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 666-son qarori ijrosi haqida”gi 511-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 11 oktabrdagi 666-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi tomonidan Suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekgidroenergo” AJ va Fanlar akademiyasi bilan birgalikda suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilish tizimi ishga tushirilganligi;

Belgilanishicha, suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilishi tizimini doimiy yangilab borishi va yuritish xarajatlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta‘minlash sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirilishi;

Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilishi tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Quyidagilar:

va O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar texnologiyalar agentligi-suv omborlari to‘g‘onlarining deformatsiyalanishi, siljishi hamda cho‘kishi dinamikasi bo‘yicha ma‘lumotlarini tuzishi, qayta ishlashi va suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilinishiga;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi-suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilishi tizimi orqali deformatsiyalanishi, siljishi va cho‘kishi dinamikasi ma’lumotlarini har bir to‘g‘on kesimida tahlil qilishi, dinamik xossalarni o‘rganishi, ularning kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatini baholashi hamda xavfsizlik mezonlari talablari bo‘yicha xulosa tayyorlanishiga;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekgidroenergo” AJ-suv omborlari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilishi tizimi hamda Platformaga kiritishi va ularni muntazam yangilab borilishiga mas’ul etib belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi va “O‘zbekgidroenergo” AJning taklifiga muvofiq Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini doimiy radiolokatsion kosmik monitoring qilishi tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladigan suv omborlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligi kosmik monitoringini o‘rganish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda-Komissiya) 3-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi;

Suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligi kosmik monitoringini o‘rganish Komissiyaning asosiy vazifalari belgilab berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilishi inspeksiyasi va “O‘zbekgidroenergo” AJ 2024-yil 20-oktabrdan boshlab bosqichma-bosqich zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda, suv omborlari to‘g‘onlarining xavfsizlik mezonlari qayta ko‘rib chiqilishini hamda qaytadan tasdiqlanishini ta’minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman “Suv etkazib berish xizmati” DM (I.Abdullaev), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Mamajonov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi 666-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov